

**ICHKI ISHLAR PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING AHOLINING HUQUQIY
MADANIYATI DARAJASINI YUKSALTIRISH VA JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH
BORASIDAGI VAZIFALARI**

Temirova Mashhura Muhammadaminovna
Qo'qon Davlat pedagogika insituti dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolda mustaqillik yillarida ichki ishlar sohasida amalga oshirilgan islohotlar, profilaktika inspektorlarining davlat organlari va muassasalari bilan hamkorligi faoliyati istiqbollari to'risida so'z boradi. Shuningdek maqolada respublikada ichki ishlar profilaktikasi inspektorlari faoliyatining hamkorlikdagi samarali natijalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ichki ishlar, jamoat, huquq, millat, erkinlik, xavfsizlik, jinoyat, jazo, huquqbuzarlik, tartib, intizom.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar zamirida, avvalo, inson manfaatlarini himoya qilish, uning huquq va erkinliklari ta'minlash vazifasi mujassam. O'zbekiston Respublikasi Prezidentdi Shavkat Mirziyoyev ushbu masalalarga alohida to'xtalib, "Biz "Adolat – qonun ustuvorligida" degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun, avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va ma'suliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralari ko'rishimiz darkor" ¹, deb ta'kidlab o'tdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son farmoni²ga muvofiq, har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o'zida hal etish, shuningdek, hududlarda jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda "jinoyat o'choqlari"ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalb qilish – ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari sifatida belgilanib, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi choralari ko'rilmogda.

Turli xil ko'rinisdagi tahdid va xavf-xatarlar ko'payib borayotgan bugungi sharoitda mamlakatda, uning har bir mahallasida, hatto eng chekka qishloqlarida ham tinchlik va

¹ Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси / Халқ сўзи. – 2016. – № 243 (6678) Б. 1–3.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги "Жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатдан янги bosqichga кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6196-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5344118>.

osoyishtalikni, inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishni, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat, xususan, ichki ishlar organlarining eng dolzarb va murakkab vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ichki ishlar idoralari tizimlarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida har bir mahalla, eng olis, chekka qishloq va ovullarimizgacha xalq bilan ishlaydigan uning dardu g'amiga hamdard, quvonchu tashvishiga sherik bo'lishga, hamnafas bo'lishga ma'naviy jihatdan qodir profilaktika inspektorlari faoliyat ko'rsatishiga erishish imkoni yaratildi. Bunda birinchi navbatda mahalla hududlarida tashkil etilgan ichki ishlar organlarining eng quyi bug'ini bo'lgan tayanch punktlari faoliyatini yo'lga quyilganligini keltirib o'tishimiz mumkin. Bugungi kunda Respublikamizning eng chekka hududlarida ham ichki ishlar organlarining eng quyi bug'ini bo'lgan tayanch punktlari tashkil etilgan bo'lib, ularning faoliyati ichki ishlar idoralari xodimlari va keng jamoatchilikning o'zaro uzviy hamkorligi asosida yo'lga quyilgan. Darhaqiqat, bugungi kunda profilaktika inspektorlari to'g'ridanto'g'ri mahallalarda fuqarolar bilan ishlaydigan xodimdir, shu boisdan 43 ularning xizmat faoliyatini to'g'ri tashkil etish va buning uchun barcha shartsharoitlarini yaratib berish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentdi Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Biz "Adolat – qonun ustuvorligida" degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun, avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va ma'suliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralarini ko'rishimiz darkor³".

Mamlakatimizda 2014 yil 14 may kuni qabul qilingan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"⁴ gi qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"⁵ gi (2017) qarori ham aynan mazkur xususiyatlar va qoidalar asosida shakllantirilgan bo'lib, asosiy maqsadi jamiyatda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Fuqarolik jamiyatini barpo etish, yurtdoshlarimizning erkinlik va tashabbuslarini, mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi ishtirokini kengaytirish kelgusida ham O'zbekiston siyosiy tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishi bo'lib qoladi. Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o'ta shiddat bilan o'zgarayotgani va turli tahdidlar ko'pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo'lmaydigan g'oyat murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Shu sababli O'zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tahdidlar, o'z yechimini kutayotgan eng muhim muammoli masalalarga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Bu albatta jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olishdir. Jinoyatni ochishdan ko'ra uning oldini olish bugungi kuning dolzarb masalasi xisoblanadi.

³ Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови / Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси / Халқ сўзи, 2016. – № 243 (6678) – Б. 1–3

⁴Ўзбекистон Республикасининг "Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

⁵Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Хуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2833-сон (14.03.2017.) қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. – № 12. – 184-м.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, jamoat xavfsizligini ta'minlashning eng quyi bo'g'ini bo'lgan Mahalla huquq-tartibot maskanlari, shuningdek, u yerda kunu tun faoliyat olib boruvchi, hududga jalb etilgan kuch va vositalarning faoliyatini samarali tashkil etish hamda muvofiqlashtirish bo'yicha belgilangan kompleks tizimli choratadbirlarning o'z vaqtida sifatli amalga oshirilishi, albatta, "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da, xususan, uning "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan maqsadlarga erishishning asosiy shartlaridan biri bo'lgan "mahalla – sektor – tuman – viloyat – respublika" hududida tinchlik va osoyishtalikni hamda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси / Халқ сўзи. – 2016. – № 243 (6678) Б. 1–3.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги "Жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6196-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5344118>.
3. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови / Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси / Халқ сўзи, 2016. – № 243 (6678) – Б. 1–3
4. 1 Ўзбекистон Республикасининг "Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2833-сон (14.03.2017.) қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. – № 12. – 184-м.
6. Azimova M.M.O'zbekiston mustaqilligi yillarida sog'liqni saqlash va tez tibbiy yordam xizmati xuquqiy asoslarining yaratilishi va takomillashtirilishi (Farg'ona viloyati 1991-2010 yillar misolida) Yosh Tadqiqotchi Jurnal, Vol. 3 No. 1 (2024) ISSN: 2181-3132 3(1), 69–74. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/623>
7. Ганиева, М. А. "Из истории поэтического наследия народов Центральной Азии." Наука и современность 22 (2013): 179-181.
8. Ганиева, М. А. (2013). Из истории поэтического наследия народов Центральной Азии. Наука и современность, (22), 179-181.
9. Ganiyeva, Muborak. "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Халқ

билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили” да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола.” Архив научных исследований (2019).

10. Ganiyeva, M. (2019). 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили” да амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. Архив научных исследований.

11. Madaliyeva Xurshida Ulug'bek qizi, & Muborakxon Ganiyeva. (2023). МАКТАВГАСНА ТА'ЛИМ TASHKIOTLARIDA ХОРИЈИЙ TILLARNI О'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 350–352. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.445>

12. Ганиева, М. А. "САХИБКИРАН-СОЗДАТЕЛЬ ШКОЛЫ ПО УПРАВЛЕНИЮ ГОСУДАРСТВОМ." Экономика и социум 3-2 (106) (2023): 468-474.

13. Ганиева, М. А. (2023). САХИБКИРАН-СОЗДАТЕЛЬ ШКОЛЫ ПО УПРАВЛЕНИЮ ГОСУДАРСТВОМ. Экономика и социум, (3-2 (106)), 468-474.

14. Ганиева, Муборак Адиловна. "Концептуальные основы образовательной технологии в курсе «Обществоведение»." Вестник Университета Российской академии образования 3 (2010): 135-137.

15. Ганиева, М. А. (2010). Концептуальные основы образовательной технологии в курсе «Обществоведение». Вестник Университета Российской академии образования, (3), 135-137.

16. Ibragimovna, R. S. (2020). REFORMS IN THE FIELD OF MEDICINE IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE. Medical care, 24(46), 73-7.

17. Рахматуллаева, С. И. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА САЛОМАТЛИК МАСАЛАЛАРИ. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 103-107).

18. Boltaboyev, M. (2020). HISTORY OF RELIGIOUS CONFESSIONAL POLITICS IN THE SOVIET PERIOD. Theoretical & Applied Science, (6), 668-671.

19. Salmonov, A., & Boltaboev, M. (2021, August). THE CONSEQUENCES OF THE SOVIET GOVERNMENT'S VIOLENT POLICY TOWARDS NON-MUSLIMS IN UZBEKISTAN: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1251>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.05).

20. Salmonov, A., & Boltaboev, M. (2021, June). THE CONSEQUENCES OF THE SOVIET GOVERNMENT'S VIOLENT POLICY TOWARDS NON-MUSLIMS IN UZBEKISTAN. In Конференции.

21. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59

22. Temirova Mashhura Muhammadaminovna (2022). O'ZBEKISTON RESPULIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Farg'ona viloyati IIB misolida). Research Focus, (Special issue 1), 52-55.

23. Темирова, М. М. (2020). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОЗДАНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТАШКЕНТСКОЙ РАДИОСТАНЦИИ (1926-1930 гг.). In Культура и гуманитарные науки в современном мире (pp. 110-116).

24. Темирова, М. М. (2020). СОВЕТ ҲУКУМАТИ ДАВРИДА РАДИОНИНГ КОММУНИСТИК МАФКУРА ТАРҒИБОТИ ВОСИТАСИГА АЙЛАНТИРИЛИШИ. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 3(2).

25. Темирова, М. М. (2016). Қўқон хонлигининг савдо алоқалари (Шарқий Туркистон мисолида). Молодой ученый, (3-1), 4-5.

26. ТЕМИРОВА, М. HISTORY OF RADIOFICATION INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN. UNIVERSITETI XAVARLARI, 2019,[1/1] ISSN 2181-7324.